XALQ DEPUTATLARI KOSONSOY TUMAN KENGASHINING

Q A R O R I

2023 - yil 17 - aprel VI-59-35-6-80-K/23 Kosonsoy tuman hokimligi

Kosonsoy tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi **299-sonli** qarorining **1-ilovasi** bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2023-yil 4-fevraldagi 24-6-80-F/23-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tuman hududlarining umumiy perimetri **533782 metr,** umumiy maydoni **48 400,28 gektar** ekanligi aniqlandi

Jumladan:

Kosonsoy shahrining umumiy perimetri 23 933 metr ekanligi, umumiy maydoni 1419,83 gektar;

“Bog‘ishamol” shaharchasining umumiy perimetri 6 472 metr ekanligi, umumiy maydoni 105,09 gektar;

“Istiqlol” shaharchasining umumiy perimetri 5 387 metr ekanligi, umumiy maydoni 96,13 gektar;

“Koson” shaharchasining umumiy perimetri 12 408 metr ekanligi, umumiy maydoni 272,24 gektar;

“Ozod” shaharchasining umumiy perimetri 4 371 metr ekanligi, umumiy maydoni 79,19 gektar;

“Qo‘qumboy” shaharchasining umumiy perimetri 7 899 metr ekanligi,

umumiy maydoni 224,30 gektar;

“Tergachi” shaharchasining umumiy perimetri 9 806 metr ekanligi, umumiy maydoni 295,70 gektar;

“Yangijoy” shaharchasining umumiy perimetri 3 845 metr ekanligi, umumiy maydoni 70,49 gektar;

“Yangishahar” shaharchasining umumiy perimetri 5 939 metr ekanligi, umumiy maydoni 114,84 gektar;

“Chindovul” shaharchasining umumiy perimetri 9 933 metr ekanligi, umumiy maydoni 418,42 gektar;

“Chustko‘cha” shaharchasining umumiy perimetri 8 533 metr ekanligi, umumiy maydoni 141,65 gektar;

-Koson qishlog‘ining umumiy perimetri 44 452 metr ekanligi, umumiy maydoni 2472,42 gektar;

-Qorasuv qishlog‘ining umumiy perimetri 52 073 metr ekanligi, umumiy maydoni 6060,21 gektar;

-Qo‘qumboy qishlog‘ining umumiy perimetri 58 348 metr ekanligi, umumiy maydoni 9275,27 gektar;

-Tergachi qishlog‘ining umumiy perimetri 68 351 metr ekanligi, umumiy maydoni 8430,12 gektar;

-Yoshlik qishlog‘ining umumiy perimetri 81 301 metr ekanligi, umumiy maydoni 9122,52 gektar;

-Shirin qishlog‘ining umumiy perimetri 49 010 metr ekanligi, umumiy maydoni 2714,09 gektar;

-Chindovul qishlog‘ining umumiy perimetri 81 721 metr ekanligi, umumiy maydoni 7087,77 gektar ekanligi aniqlandi.

Kosonsoy tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda Kosonsoy shahri, shaharcha va har bir qishloqlarning chegaralari ajratib ko‘rsatgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlar palatasining Kosonsoy tumani filiali rahbarining axborotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Davlat kadastrlar palatasining Kosonsoy tumani filiali rahbari I.Saidovning Kosonsoy tumani hududidagi Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Kosonsoy tumanidagi shaharcha va qishloqlarning, shuningdek tumanga bo‘ysunuvchi Kosonsoy shahar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan Ishchi guruh tarkibining 2023-yil “13” apreldagi 6 - sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kosonsoy tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati (R.Temirov)ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashidan so‘ralsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **D.Kadirov**

Xalq deputatlari Kosonsoy tuman
Kengashining
2023 yil 17 apreldagi
VI-59-35-6-80-K/23-son qaroriga
1-ilova

Kosonsoy tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarini yakuniy natijalari to‘g‘risida

M A ‘ L U M O T

T/r	Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1	Kosonsoy shahri	23933	1419,83
2	Bog‘ishamol shaharcha	6472	105,09
3	Istiqlol shaharcha	5387	96,13
4	Koson shaharcha	12408	272,24
5	Ozod shaharcha	4371	79,19
6	Qo‘qumboy shaharcha	7899	224,30
7	Tergachi shaharcha	9806	295,70
8	Yangijoy shaharcha	3845	70,49
9	Yangishahar shaharcha	5939	114,84
10	Chindovul shaharcha	9933	418,42
11	Chustko’cha shaharcha	8533	141,65
12	Koson qishlog‘i	44452	2472,42
13	Qorasuv qishlog‘i	52073	6060,21
14	Qo‘qumboy qishlog‘i	58348	9275,27
15	Tergachi qishlog‘i	68351	8430,12
16	Yoshlik qishlog‘i	81301	9122,52
17	Shirin qishlog‘i	49010	2714,09
18	Chindovul qishlog‘i	81721	7087,77
	Tuman bo‘yicha jami	**533782**	**48400,28**


Xalq deputatlari Kosonsoy tuman Kengashining
2023 yil 17 apreldagi
VI-59-35-6-80-K/23-son qaroriga
2-ilova

Kosonsoy tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash chegaralarining kartografik chizmasi

Namangan viloyati Kosonsoy tumanining shahar, shaharchalar va qishloqlarning ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

SXEMASI

Xalq deputatlari Kosonsoy tumani
Kengashining
2023-yil ___ _____ dagi
_____ -sonli qaroriga
-ilova



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha Qirg'iziston Respublikasi yerlari
B dan D gacha Yangiqo'rg'on tumani yerlari
D dan E gacha Namangan shahri yerlari
E dan F gacha To'raqo'rg'on tumani yerlari
F dan A gacha Chust tumani yerlari

Shartli belgilar

Davlat chegaralari
Tumanlar chegarasi
Shahaharlar va shaharchalar chegarasi
Qishloqlar (Ovullar) chegaralari